

2023- yil yanvar-fevral oylari uchun  
dastlabki ma'lumot



## XORAZM VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi:  
(62) 224-65-09



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-fevral oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **140,7 mln. AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **59,0 mln. AQSH** dollariga yoki **72,2 %** ga ko'paydi.



### TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-fevral, mln. AQSH dollari)



#### Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **140,7** +72,2 %

(2022- y.: 81,7)

Saldo

2023- y.: - **42,8** (2022 r.: - 6,4)



#### Eksport

2023- y.: **48,9** +30,1 %

(2022- y.: 37,6)



Tovarlar: **47,4**



Xizmatlar: **1,6**



#### Import

2023- y.: **91,7** +108,2 %

(2022- y.: 44,1)



Tovarlar: **91,7**

**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojaxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojaxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo’shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

 TSAda eksport hajmi **48,9** mln. AQSH dollariga (**30,1** % ga ko‘paydi) va import hajmi **91,7** mln. AQSH dollariga (**108,2** % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **-42,8** mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



### **XORAZM VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR**

*(2023-yil yanvar-fevral, mln. AQSH dollari)*

Braziliya	Rossiya Federatsiyasi	Turkiya	XXR	Pokiston
<b>TSA – 27,6</b>	<b>TSA – 19,7</b>	<b>TSA – 15,8</b>	<b>TSA – 14,3</b>	<b>TSA – 13,7</b>
Eksport: 0,0 Import: 27,6	Eksport: 11,1 Import: 8,6	Eksport: 3,3 Import: 12,5	Eksport: 1,8 Import: 12,5	Eksport: 13,7 Import: 0,0
 19,6 %	 14,0 %	 11,2 %	 10,2 %	 9,7 %
Qirg‘iz Respublikasi	Germaniya	Qozog‘iston	Belorus Respublikasi	Eron
<b>TSA – 12,4</b>	<b>TSA – 10,0</b>	<b>TSA – 4,7</b>	<b>TSA – 3,8</b>	<b>TSA – 3,3</b>
Eksport: 12,3 Import: 0,1	Eksport: 0,0 Import: 10,0	Eksport: 1,8 Import: 2,9	Eksport: 0,4 Import: 3,4	Eksport: 1,6 Import: 1,7
 8,8 %	 7,1 %	 3,4 %	 2,7 %	 2,3 %

Xorazm viloyati jahoning **65** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Braziliya (**19,6 %**), Rossiya Federatsiyasi (**14,0 %**), Turkiya (**11,2 %**), XXR (**10,2 %**), Poliston (**9,7 %**), Qирг'из Республикаси (**8,8 %**) va Germaniyada (**7,1 %**) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Turkmaniston, Qирг'из Республикаси va Qozog'iston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda Qирг'из Республикаси va Qozog'iston bilan viloyatning TSAsi hajmi **73,0** foizga oshdi.



## TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-fevral, mln. AQSH dollarri)

Pokiston – 13,7



Qирг'из Республикаси – 12,2



Rossiya Federatsiyasi – 2,5



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan uchta davlatda ijobjiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Qolgan **17** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



## XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

*(yanvar-fevral, mln. AQSH dollar)*

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Braziliya</b>	<b>19,4</b>	<b>0,0</b>	<b>27,6</b>
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	19,4	0,0	27,6
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>10,9</b>	<b>18,6</b>	<b>19,7</b>
<i>Eksport</i>	6,4	12,0	11,1
<i>Import</i>	4,5	6,6	8,6
<b>Turkiya</b>	<b>6,7</b>	<b>21,9</b>	<b>15,8</b>
<i>Eksport</i>	4,3	4,2	3,3
<i>Import</i>	2,4	17,7	12,5
<b>XXR</b>	<b>32,0</b>	<b>12,5</b>	<b>14,3</b>
<i>Eksport</i>	4,6	2,1	1,8
<i>Import</i>	27,4	10,4	12,5
<b>Pokiston</b>	<b>1,2</b>	<b>1,2</b>	<b>13,7</b>
<i>Eksport</i>	0,9	1,1	13,7
<i>Import</i>	0,3	0,1	0,0
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>6,3</b>	<b>3,1</b>	<b>12,4</b>
<i>Eksport</i>	0,0	3,1	12,3
<i>Import</i>	6,3	0,0	0,1
<b>Germaniya</b>	<b>2,5</b>	<b>1,4</b>	<b>10,0</b>
<i>Eksport</i>	0,2	0,6	0,0
<i>Import</i>	2,3	0,8	10,0
<b>Qozog'iston</b>	<b>3,5</b>	<b>10,8</b>	<b>4,7</b>
<i>Eksport</i>	2,2	7,9	1,8
<i>Import</i>	1,3	2,9	2,9
<b>Belarus</b>	<b>0,2</b>	<b>0,7</b>	<b>3,8</b>
<i>Eksport</i>	0,0	0,6	0,4
<i>Import</i>	0,2	0,4	3,4
<b>Eron</b>	<b>1,2</b>	<b>1,1</b>	<b>3,3</b>
<i>Eksport</i>	0,6	0,8	1,6
<i>Import</i>	0,6	0,3	1,7

<b>Davlatlar</b>	<b>2021- y.</b>	<b>2022- y.</b>	<b>2023- y.</b>
<b>Finlyandiya</b>	<b>0,1</b>	<b>0,0</b>	<b>3,0</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,0 0,1	0,0 3,1
<b>Turkmaniston</b>	<b>2,0</b>	<b>1,8</b>	<b>1,8</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	1,2 0,8	0,9 0,9
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>6,8</b>	<b>0,6</b>	<b>1,5</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,2 6,6	0,1 0,5
<b>Polsha</b>	<b>0,3</b>	<b>0,8</b>	<b>1,5</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,1 0,2	0,1 0,7
<b>Shveytsariya</b>	<b>0,04</b>	<b>0,0</b>	<b>1,2</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,0 0,04	0,0 1,2
<b>Litva</b>	<b>0,2</b>	<b>0,0</b>	<b>1,0</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,0 0,2	0,3 0,3
<b>Hindiston</b>	<b>0,4</b>	<b>0,9</b>	<b>0,9</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,1 0,3	0,2 0,9
<b>Italiya</b>	<b>0,2</b>	<b>0,1</b>	<b>0,7</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,2 0,0	0,0 0,1
<b>Bolgariya</b>	<b>0,1</b>	<b>0,0</b>	<b>0,5</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,1 0,0	0,0 0,0
<b>Bangladesh</b>	<b>1,1</b>	<b>0,1</b>	<b>0,5</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,5 0,6	0,0 0,1



## XORAZM VILOYATIINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-fevral)\*


	Hajm mln. AQSH dollarri	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Xorazm viloyati	140,7	172,2	100,0
Urganch sh.	18,2	115,6	12,9
Xiva sh.	4,5	187,9	3,2
Bog'ot	7,0	187,1	5,0
Gurlan	6,5	3,3 m.	4,6
Qo'shko'pir	12,3	184,9	8,7
Urganch	9,0	109,6	6,4
Hazorasp	7,0	177,6	5,0
Tuproqqa'l'a	33,4	13,7 m.	23,8
Xonqa	9,5	137,6	6,8
Xiva	4,6	2,3 m.	3,2
Shovot	11,5	2,6 m.	8,2
Yangiariq	12,3	74,9	8,7
Yangibozor	4,6	72,2	3,3



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Tuproqqa'l'a tumani **23,8 %** ulush bilan **33,4 mln. AQSH dollarini**, eng quyisi ulushni esa Xiva shahri **3,2 %** ulush bilan **4,5 mln. AQSH dollarini** tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

## XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMILAKATLARI VA BOSHQA XORIJY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-fevral, mln. AQSH dollarri, ulushi, % da)



2023- yilning yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **30,9** %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning shu davriga nisbatan past ko'rsatkichni qayd etdi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-fevral oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **2,2 martaga** oshdi va jami TSAdagi ulushi **69,1** % ni tashkil etdi.

Xorazm viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, **43,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **26,8** mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **16,6** mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



## XORAZM VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI


*(2023- yil yanvar-fevral, mln. AQSH dollari)*



Xorazm viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**45,3 %**), Qirg'iz Respublikasi (**28,6 %**) hamda Qozog'iston (**10,9 %**) davlatlari bilan qayd etildi.

## XORAZM VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-fevral, mln. AQSH dollarri, ulushi, % da)



Jami tashqi savdo  
aylanmasidagi ulushi

28,9 %

Jami eksportdagii ulushi

52,3 %

Jami importdagii ulushi

16,4 %



Xorazm viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **40,6** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **25,7** mln. AQSH dollarri, import hajmi esa **14,9** mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.


## XORAZM VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyordi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyordi soni **74** taga yetdi va ular tomonidan **48,9** mln. AQSH dollari qiymatidagi (*2022-yilning mos davriga nisbatan 30,1 % ga ko'paydi*) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023-yil yanvar-fevral, ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinnlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinnlarda – XSST**) ishlataladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'tasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

*(yanvar-fevral, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollarri		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	37,6	48,9	121,3	130,1	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	10,3	16,2	102,4	157,9	27,3	33,1
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	-	20,3 m.	0,0	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,4	1,1	69,0	80,2	3,6	2,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,6	0,9	473,9 m.	146,3	1,7	1,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,5	-	7,4 m.	-	1,2	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,0	0,3	70,5	9,2 m.	0,1	0,6
Sanoat tovarlari	18,4	18,9	119,1	103,0	48,9	38,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	0,0	0,1	55,8	2,1 m.	0,1	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	3,0	9,8	125,8	3,3 m.	8,0	20,0
Xizmatlar	3,4	1,6	3,4 m.	46,2	9,2	3,3

Ekspert tarkibida tovarlar ulushi **96,7 %**ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**38,7 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**33,1 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**20,0 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## XORAZM VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-fevral)


XSST bo‘limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	3,3	4,2 m.
Don va don mahsulotlari	1353,4	177,9 m.
Sabzavotlar va mevalar	14738,5	147,7
Qahva, choy, kakao, ziravorlar	7,6	10,6
Hayvonlar uchun ozuqa (maydalangan donlardan tashqari)	50,6	-
Turli xil ovqatlar va preparatlar	65,0	154,6
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	48,8	20,3 m.
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari</b>		
Yog‘li urug‘lar va yog‘li mevalar	80,7	28,3
To‘qimachilik tolalari (yuqori va boshqa taroqli jundan tashqari) va ularning chiqindilari (kalava yoki matoga qayta ishlanmagan)	969,2	95,6
O‘g‘itlar uchun xom ashyo va minerallar (ko‘mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	12,9	-
Hayvonot va o‘simlik manbalaridan boshqa xom ashylar.	28,0	61,7
<b>Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar	912,4	146,3
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar</b>		
Noorganik kimyoviy moddalar	14,5	17,9 m.
Bo‘yoqlar va taninlar	16,6	3,6 m.
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	211,4	-
Efir moylari, rezinoidlar va parfyumeriya; xojatxona preparatlari, jilo va yuvish vositalari	5,9	3,1 m.
Birlamchi bo‘limgan shakldagi plastmassalar	12,1	12,2 m.

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Teri, boshqa turdag'i charm buyumlar, mo'ynalar	0,3	21,2
Qog'oz, karton va qog'oz xamiri, qog'oz yoki karton mahsulotlari	1317,1	2,1 m.
To'qimachilik iplari, matolar, boshqa turdag'i ishlab chiqarilgan mahsulotlar va shunga o'xshash mahsulotlar	17559,8	105,2
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan mineral mahsulotlar	59,5	51,1
Boshqa metall buyumlar	8,1	0,8
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalar</b>		
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	38,9	-
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashina va uskunalar, mashinalar qismlari.	36,9	91,7
Elektr mashinalari, apparatlari va asboblari va ularning elektr qismlari (shu jumladan, boshqa nomga tegishli bo'lmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'lmagan qismlari)	0,9	-
Avtomobillar	8,1	-
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matras tayanchlari, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	197,8	10,7 m.
Sayohat aksessuarlari, sumkalar va shunga o'xshash idishlar	845,4	57,7 m.
Kiyim va kiyim aksessuarlari	8103,6	2,8 m.
Oyoq kiyimlari	511,2	14,8 m.
Boshqa turdag'i tayyor mahsulotlar.	118,1	128,7

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kirdi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida MDH mamlakatlariga **26,8** mln. AQSH dollarini qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **54,7** % ini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-fevral, mln. AQSH dollarini, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Pokiston, Qirg'iz Respublikasi, Rossiya, Turkiya, XXR, Qozog'iston va Eron kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **93,1** % ni tashkil etdi.



### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-fevral, % da)





**XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA  
AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI  
VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-fevral, yillar kesimida)**

Davlatlar	Mln. AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Pokiston	1,2	13,7	126,6	11,8 m.	6	1
Qirgiz Respublikasi	3,1	12,3	49,6	3,9 m.	4	2
Rossiya Federatsiyasi	12,0	11,1	187,5	92,6	1	3
Turkiya	4,2	3,2	98,9	77,3	3	4
XXR	2,1	1,8	46,6	84,0	5	5
Qozog'iston	8,0	1,8	3,5 m.	22,6	2	6
Eron	0,8	1,6	145,0	193,9	8	7
Turkmaniston	0,9	0,5	71,4	59,7	7	8
Belarus	0,3	0,5	29,3 m.	137,1	16	9
Tojikiston	0,4	0,4	58,6	87,1	13	10
Vyetnam	0,5	0,3	-	60,3	12	11
Litva	0,0	0,3	-	-	35	12
Polsha	0,1	0,2	62,2	3,4 m.	22	13
Hindiston	0,0	0,2	6,8	36,3 m.	27	14
Irlandiya	0,3	0,2	-	52,6	17	15
Koreya Respublikasi	0,1	0,1	60,4	84,5	21	16
Moldova Respublikasi	0,1	0,1	198,5	149,0	23	17
Ozarbayjon	0,2	0,1	52,5	47,2	19	18
Ukraina	0,6	0,0	94,1	8,3	9	19
Iraq	0,4	0,0	144,2	9,3	14	20



## XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-fevral)\*

	Hajm mln. AQSH dollarlari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>48,9</b>	<b>130,1</b>	<b>100,0</b>
Urganch sh.	5,2	109,0	10,7
Xiva sh.	2,6	178,2	5,3
Bog'ot	5,5	2,1 m.	11,3
Gurlan	3,2	3,5 m.	6,5
Qo'shko'pir	1,0	16,3	2,0
Urganch	3,6	66,8	7,4
Hazorasp	2,9	134,0	5,8
Tuproqqa'l'a	1,3	190,3	2,7
Xonqa	5,6	129,9	11,5
Xiva	3,0	2,1 m.	6,1
Shovot	5,5	5,5 m.	11,2
Yangiariq	4,6	3,9 m.	9,5
Yangibozor	4,5	86,1	9,3

Eng yuqori hajm,  
mln. AQSH dollarlari

Xonqa

5,6

Bog'ot

5,5

Shovot

5,5

Eng quiyi hajm,  
mln. AQSH dollarlari

Qo'shko'pir

1,0

Tuproqqa'l'a

1,3

Xiva sh.

2,6

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Xonqa tumani **11,5 %** bilan **5,6 mln. AQSH dollarini**, eng quiyi ulushni esa Qo'shko'pir tumani **2,0 %** bilan **1,0 mln. AQSH dollarini** tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-fevral oylarida **5,9** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatgich 2022- yilning mos davriga nisbatan **72,2** foizga yoki **15,4** ming tonnaga kamaydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (**82,3** %), Rossiya (**12,7** %), Qozog‘iston (**3,0** %) hamda Polsha (**0,5** %) davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

2023- yil yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo‘lgan **14,7 mln.** AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko‘rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **47,7** % ga ko‘paydi va jami eksportdagι ulushi **30,1** % ni tashkil etdi.

## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2023- yil yanvar-fevral)





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-fevral)

Davlatlar	Tonna (birlikda)	Ming AQSH dollarri	Ulushi, % da *
 Pokiston	3054,8	12208,9	51,9
 Rossiya	1921,3	1876,3	32,6
 Qozog'iston	648,2	443,7	11,0
 Polsha	45,0	67,6	0,8
 Ukraina	61,8	47,5	1,0
 Afg'oniston	47,2	28,4	0,8
 BAA	22,5	22,5	0,4
 Iraq	42,8	19,3	0,7
 Eron	22,0	17,6	0,4
 Turkmaniston	19,8	7,9	0,3

\* qiyamat ifodasidan



2023- yil yanvar-fevral oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **51,9 %** i), bu ko'rsatkich Rossiyaga eksport hajmidan **59,9** foizga ko'p.



## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O'zbekiston uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o'rniغا tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2023- yil yanvar-fevral oylari yakuni bo'yicha **14,9 mln. AQSH dollarilik** to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **30,4 %** ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **25,4 %** ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**53,0 %**) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **146** turdag'i to'qimachilik mahsulotlari dunyoning **11** ta davlatiga eksport qilindi.

### TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-fevral, mln. AQSH dollar)



	2022- yil	2023- yil
<b>Jami:</b>	<b>20,0</b>	<b>14,9</b>
Paxtadan yigirligan ip	14,1	0,0
Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	2,7	7,9
Naqshli mato	0,4	0,4
Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	0,04	0,9
Paxtadan gazlamalar	1,4	2,4
Ipak va ipak mahsulotlari	0,7	0,7
Paxta mahsulotlari	0,6	1,8
Gilamlar	0,1	0,8



## DAVLATLAR KESIMIDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-fevral, mln. AQSH dollarri)



		2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da
	Qirg'iz Respublikasi	1,8	9,2	5,0 m.
	Rossiya Federatsiyasi	7,6	3,6	47,9
	Qozog'iston	1,3	0,9	70,7
	XXR	2,1	0,3	15,5
	Vyetnam	0,5	0,3	60,3
	Belarus	0,3	0,2	69,9
	Hindiston	-	0,1	-
	Moldova Respublikasi	0,06	0,08	149,0
	Ozarbayjon	0,08	0,07	89,2
	Turkmaniston	0,01	0,03	4,9 m.
	Turkiya	4,0	0,01	0,3
	Boshqa davlatlar	8,8	4,3	49,2




Viloyatning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to'qimachilik bozoridagi ulushi oshib bormoqda.

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Qirg'iz Respublikasi (**61,8 % – 9,2 mln. AQSH dollarri**) va Rossiya Federatsiyasi (**24,4 % – 3,6 mln. AQSH dollarri**) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdarligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnnini topish imkonini beradi.



### XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-fevral, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **1,6** mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **3,3 %** ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **53,8 %** ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (**45,6 %**), transport (**32,5 %**), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (**18,3 %**) va boshqa xizmatlar (**3,6 %**) hissasiga to'g'ri kelgan.




## XORAZM VILOYATINING IMPORTI

2023- yilning yanvar-fevral oylarida import hajmi **91,7** mln. AQSH dollarini tashkil qildi va 2022- yilning mos davriga nisbatan **2,1** martaga oshdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalarini (**44,7** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**31,4** %) hamda nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (**7,2** %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-fevral, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **47,7** mln. AQSH dollariga ko'paydi va **91,7** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



## XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-fevral, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami import</b>	<b>2 116,6</b>	<b>2 959,7</b>	<b>129,1</b>	<b>139,8</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1,2	28,8	5,4	23,1 m.	2,8	31,4
Ichimliklar va tamaki	0,01	0,01	187,6	93,3	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4,5	6,6	134,5	147,3	10,1	7,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,3	2,2	56,2	6,2 m.	0,8	2,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,2	0,6	7,0 m.	3,3 m.	0,4	0,7
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	4,7	4,9	106,4	104,3	10,6	5,3
Sanoat tovarlari	4,9	4,4	160,4	89,9	11,1	4,8
Mashinalar va transport asbob- uskunalarini	24,8	41,0	98,1	165,6	56,3	44,7
Turli xil tayyor buyumlar	3,4	3,3	30,9	95,7	7,8	3,6



**XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR  
IMPORTI TARKIBI  
(2023- yil yanvar-fevral)**


<b>XSST bo'limi nomi</b>	<b>Ming AQSH dollarri</b>	<b>2022- yilga nisbatan, % da</b>
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Tirik hayvonlar	18,0	-
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	490,0	83,5
Don va don mahsulotlari	93,8	41,9
Sabzavotlar va mevalar	150,8	80,0
Shakar va asal mahsulotlari	27581,8	-
Qahva, choy, kakao va ziravorlar	22,5	39,5
Hayvonlar uchun ozuqa	257,6	159,7
Turli xil ovqatlar va dorilar	151,1	5,2 m.
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	6,7	93,3
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Tabiiy kauchuk (sintetik kauchuk va qayta tiklangan kauchuk)	35,2	22,0
Yog'och va yog'och mahsulotlari	6234,9	150,6
Qog'oz massasi va chiqindi qog 'ozi	1,1	-
To'qimachilik tolasi	269,0	166,6
O'g'itlar uchun xom ashyo	0,1	-
Metall romlari va metall parchalari	0,1	-
Boshqa toifalarga kiritilmagan hayvon va o'simliklari xom ashysosi	29,6	-
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Ko'mir, koks va briketlar	33,1	2,3 m.
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	2119,5	6,4 m.
<b>Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lari va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari	33,1	2,3 m.
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Organik kimyoviy moddalar	6,4	23,2
Noorganik kimyoviy moddalar	45,3	19,1
Rang berish va tanin va bo'yoqlar	291,2	135,8
Tibbiy va farmatsevtika mahsulotlari	86,4	37,3
Efir moylari, kauchuk va parfyumeriy moddalar; hojatxonalar, sayqallah va yuvish vositalari	114,3	2,7 m.
O'g'itlar	2444,8	98,3
Birlamchi plastik	1307,4	105,8
Qayta ishlangan plastmassa buyumlar	134,0	124,6
Kimyoviy materiallar va boshqa toifalarga kiritilmagan mahsulotlar	452,7	4,6 m.

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Boshqa toifalarga kiritilmagan rezina buyumlar	293,7	4,0 m.
Yog'ochdan bo'lgan mahsulotlar(mebeldan tashqari)	719,9	155,1
Qog'oz, karton	641,5	170,5
To'qimachilik iplari, matolar, tayyor mahsulotlar	855,2	186,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan mahsulotlar	414,5	124,8
Quyma temir va po'lat	762,0	51,9
Rangli metallar	14,2	37,8
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall buyumlar	709,3	41,8
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalar</b>		
Energiya generatori mashinalari va jihozlari	3474,9	31,3
Muayyan sohalar uchun maxsus ishlab chiqilgan mashinalar	19722,4	2,7 m.
Metall ishlov berish mashinalari	117,2	15,7
Sanoat uchun uskunalar va jihozlar, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina qismlari	7130,7	4,6 m.
Ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash uchun ofis mashinalari va uskunalar	28,8	43,2
Texnika va jihozlar uskunalar, ovoz yozish va ovoz chiqarish	343,5	2,5 m.
Elektr mashinalar, boshqa toifalarga kirmaydigan qurilmalar va ularning elektr qismlari	4600,4	3,3 m.
Avtomobillar	5598,8	2,3 m.
Boshqa transport vositalari	25,5	-
<b>Turli hil tayyor buyumlar</b>		
Binolarni blokirovka qilish, armatura va suv ta'minotining mahkamlagichlari, issiqlik va yoritish uskunalari boshqa toifalarga kiritilmagan isitish va yoritish uskunalari	1383,4	51,0
Mebel va uning jihozlari, to'shak, zambillar, , yostiqlar va shunga o'xshash mebellar	13,3	37,6
Sumkalar va shunga o'xshash idishlar	2,5	-
Kiyim va kiyim-kechak buyumlari	2,0	41,1
Poyabzal	26,8	82,8
Boshqa toifalarga kiritilmagan maxsus, ilmiy va nazorat qurilmalari va moslamalari	804,7	130,1
Fotosuratlar, uskunalar, boshqa toifalarga kiritilmagan optik mahsulotlar	5,4	-
Boshqa toifalarga kiritilmagan turli xil tayyor mahsulotlar	1049,0	33,9 m.



2023- yil yanvar-fevral natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **18,1 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **43,1 %** ga ko'paydi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-fevral, *mln. AQSH dollarri, ulushi, % da*)



2023- yil yanvar-fevral oylarida Xorazm viloyati **42** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Braziliya, Turkiya, XXR, Germaniya, Rossiya, Belarus va Finlyandiya) jami importning **84,7** foizini tashkil etdi.



### VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-fevral, % da)





**XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI  
HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI**  
(yanvar-fevral, yillar kesimida)

Davlatlar	Mln. AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Braziliya	-	27,6	-	-	-	1
Turkiya	17,7	12,5	7,3 m.	70,8	1	2
XXR	10,4	12,5	38,1	119,9	2	3
Germaniya	0,8	10,0	35,0	12,4 m.	7	4
Rossiya Federatsiyasi	6,6	8,6	146,6	129,8	3	5
Belarus	0,4	3,4	2,3 m.	8,7 m.	11	6
Finlyandiya	-	3,1	-	-	-	7
Qozog'Iston	2,9	2,9	2,2 m.	102,1	4	8
Eron	0,3	1,7	40,6	6,3 m.	13	9
Koreya Respublikasi	0,5	1,4	7,1	3,0 m.	10	10
Turkmaniston	0,9	1,3	115,2	148,8	5	11
Polsha	0,7	1,3	3,2 m.	169,4	8	12
Shveytsariya	0,0	1,2	33,6	79,3 m.	26	13
Litva	0,3	0,7	154,6	2,6 m.	12	14
Italiya	0,1	0,6	5,2 m.	10,9 m.	21	15
Hindiston	0,9	0,6	2,6 m.	75,3	6	16
Bolgariya	-	0,5	-	-	-	17
Bangladesh	0,1	0,5	22,3	3,7 m.	18	18
Belgiya	0,1	0,3	65,6	5,5 m.	20	19
Ukraina	0,6	0,3	116,6	50,4	9	20



## XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023-yil yanvar-fevral)

	Hajm mln. AQSH dollarlari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>91,7</b>	<b>2,1 m.</b>	<b>100,0</b>
Urganch sh.	13,0	118,5	14,2
Xiva sh.	1,8	2,0 m.	2,0
Bog'ot	1,5	132,8	1,7
Gurlan	3,3	3,1 m.	3,6
Qo'shko'pir	11,3	15,6 m.	12,3
Urganch	5,4	192,5	5,8
Hazorasp	4,2	2,3 m.	4,5
Tuproqqa'l'a	32,1	18,6 m.	35,0
Xonqa	3,9	150,4	4,3
Xiva	1,6	2,7 m.	1,7
Shovot	6,0	173,9	6,5
Yangiariq	7,6	50,3	8,3
Yangibozor	0,1	7,5	0,1



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Tuproqqa'l'a tumani **35,0 %** bilan **32,1** mln. AQSH dollarini, eng quyisi ulushni esa Yangibozor tumani **0,1 %** bilan **0,1** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI





Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-fevral oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **41,0** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan **65,6** % ga ko‘paydi va importning umumiyligi hajmidagi ulushi **44,7** % ga yetdi.



### MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-fevral)




2023- yil yanvar-fevral oylarida mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **16,3** mln. AQSH dollariga oshdi. Ushbu tovarlarni Xorazm viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — **10,9** mln. AQSH dollari (**26,4** %), Turkiya — **10,5** mln. AQSH dollari (**25,5** %) va Germaniya - **8,7** mln. AQSH dollari (**21,3** %) kabi davlatlarga to‘g’ri keldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-fevral oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **4,4** mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,1 %** ga kamaydi hamda importning umumiyligi hajmidagi ulushi **4,8 %** ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-fevral, ulushi, % da)

**0,805 mln. AQSH doll, ulushi – 18,3 %**



Xitoy Xalq Respublikasi

**0,716 mln. AQSH doll, ulushi – 16,2 %**



Rossiya Federatsiyasi

**0,569 mln. AQSH doll, ulushi – 12,9 %**



Turkiya

**0,513 mln. AQSH doll, ulushi – 11,6 %**



Turkmaniston

**0,459 mln. AQSH doll, ulushi – 10,4 %**



Bangladesh



Sanoat mahsulotlari importi asosan to'qimachilik iplari, matolar, tayyor mahsulotlar (**0,855** mln. AQSH dollari), quyma temir va po'lalat (**0,762** mln. AQSH dollari), yog'ochdan bo'lgan mahsulotlar (mebeldan tashqari) (**0,720** mln. AQSH dollari), boshqa toifalarga kiritilmagan metall buyumlar (**0,709** mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.